

8-DEKABR – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGAN KUN

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi

2013-yil 2-dekabr
N:48 (66953)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

INSON MANFAATLARI AKS ETGAN QOMUS

O.ORIPOV olgan suratlar

Bugun jonajon
O'zbekistonimizga hamma havas bilan
qaraydi. Chunki yurtimizda tinchlik, xotirjamlik
hukm surayapti, xalqimiz farovon hayot kechirmoqda.
Mamlakatimizda insonning qadri baland, hamma narsa
uning manfaatiga qaratilgan. Bularning bari Bosh
Qomusimiz – O'zbekiston Respublikasining
Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan.

Davomi 2-bet

**DIQQAT! DIQQAT! «TONG YULDUZI» GAZETASIGA
OBUNA DAVOM ETMOQDA!**

Aziz o'quvchilar, mazkur yilimiz yakuniga ham sanoqli kunlar qoldi-a? Nazarimizda, bu yilgi hamkorligimiz juda samarali bo'ldi. Sevimli nashringiz «Tong yulduzi» salkam yuz ming o'quvchisining xonadoniga kirib bordi. Uning sahifalaridagi maqolalarni o'qib, respublikadagi tengdoshlaringiz hayotiga oid yangiliklardan, fan, ta'lim, adabiyot, san'at, sport sohasida qo'lga kiritayotgan yutuqlaridan xabardor bo'ldingiz, ijodkor o'g'il-qizlarga havas qilib, she'r va hikoyalar yozdingiz. «Ingliz tilini o'rganamiz» sahifasi orqali xorijiy tillarni o'rganish borasidagi bilimlaringizni yanada mustahkamladingiz. «Mustaqillik madhi bolalar ijodida», «Yurt ozod, turmush obod», «Onajonim tabiat», «Kim ko'p kitob o'qiydi» kabi tanlovlarimizda qatnashib, bilim va salohiyatingizni oshirdingiz. Sevimli adiblaringizning «tandirdan yangi uzilgan» asarlari, shuningdek, jahon bolalar adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ldingiz.

Mana shunday ijodiy hamkorligimiz kelasi yilda ham davom etsin, desangiz, tanlovlarda qatnashib, g'olib bo'lib, sirlari sovg'alarga ega bo'lishni istasangiz, sevimli nashringizga obuna bo'lishga shoshiling.

Obuna yurtimizdagi barcha tumanlarning
matbuot tarqatish bo'limlari
tomonidan rasmiylashtiriladi.
Nashr ko'rsatkichi: 198



Kexsa otaxon-u onaxonlarimiz har kuni dasturxon atrofida «Yurtimizda tinchlik, xotirjamlik bo'lsin», deya duoga qo'l ochishadi. Bu so'zlar zamirida bir olam ma'no yotadi. Zero, tinchlik, xotirjamlik bor joyda farovonlik, qut-baraka bo'ladi.

(Boshi 1-betda)

INSON MANFAATLARI AKS ETGAN QOMUS



OLMOS olgan surat

Konstitutsiya (lotincha – «constitution») – tuzilish, tartib) davlatning asosiy qonuni.

Har bir davlatda, uning ichki va tashqi hayotini tartibga solish, davlat mexanizmining rejali ishlab turishini ta'min etish uchun yuzlab va minglab qonunlar hamda qonunosti aktlari qabul qilinadi. Ularning ba'zilar iqtisodga, ba'zilar siyosatga, ba'zilar esa madaniyat va hayotning boshqa sohalariga tegishli bo'lishi mumkin. Bularsiz davlat o'z vazifalarini bajara olmaydi. Ammo, barcha bu qonunlar va qonunosti aktlari davlat hayotining juz'iy, ya'ni ayrim tomonlariga bag'ishlangan bo'ladi. Bu qonunlarni bir maqsad, bir g'oya va bir tartibga bo'yusdiradigan yagona umumdavlat asosiy qonuni kerak. Ana shu eng asosiy, eng muhim qonun Konstitutsiya deyiladi. Ya'ni, sodda qilib aytganda, Konstitutsiya qonunlarning qonunidir. Shuning uchun ham Konstitutsiya barcha boshqa qonunlar, qarorlardan yuqori turadi va ularga nisbatan eng oliy manbadir. Konstitutsiyaning talab va shartlariga barcha fuqarolar qat'iy rioya qiladilar.

Konstitutsiyalar kishilik jamiyati taraqqiyotining buyuk yutuqlardan biri, davlatdagi tartib-qoidalarining huquqiy asosidir. Insoniyat o'zining ko'p asrlik tarixiy tajribasi asosida davlatda Konstitutsiya bo'lishi shart, degan xulosaga keldi. Konstitutsiya yo'q jamiyatda ma'lum darajada ijtimoiy tartibsizlik, huquqiy tushunmovchilik, siyosiy boshboshdoqlik va talafotga kengroq o'rin qoladi. Konstitutsiya mustaqillik, tenglik, demokratiya va insonparvarlik uchun kurashning mevasidir.

Konstitutsiya o'zida hamma sohalarini mujassam etganki, iborali qilib ayt-

ganda, u biz uchun yo'lchi yulduzdir. Keling, mamlakatimizda siz yoshlar uchun yaratib berilgan shart-sharoit, qulayliklar haqida to'xtalib o'taylik. Misol uchun, yoshlarning bilim, ta'lim-tarbiya olishlari qanday yo'lga qo'yilganini olib ko'raylik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir», deb alohida belgilab qo'yilgan.

Har tong nonushta qilgach, toza, ozoda kiyinib, maktabga otlanasiz. Yangi, zamonaviy ko'rinishdagi maktablarda sizni ustozlaringiz quchoq ochib kutib olishadi. Shinam, ozoda, yorug', yal-yal yonib turgan yangi jihozlar bilan bezatilgan xonaga kirasiz. Bir xildagi chiroyli formalari o'ziga yarashib turgan tengdoshlaringiz bilan ko'rishasiz. Yuzlarida tabassum, ildam qadamlar bilan sinfga ustoz kirib keladi. Butun sinf oyoqqa qalqadi.

– Assalomu alaykum, ustoz!

– Salom, bolalar!..

Har kungi mashg'ulotlar shunday tarzda boshlanadi va shunday shavq-zavq bilan mazmunli yakun topadi. Ayting-chi, inson uchun bundan ortiq baxt bormi?!

Afsuski, dunyoning hamma mamlakatlarida ham yoshlarning yaxshi yashashi, o'qishi uchun biznikidek yaxshi sharoitlar yaratilmagan.

Ma'lumotlarga qaraganda, bugun dunyoda bir milliarddan ortiqroq kishining savodsizligi, ularning aksariyatini esa bolalar tashkil etayotgani buning isbotidir. Hatto ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda ham maktabga jalb etilgan bolalarning 60 foizi turmush qiyinchiliklari tufayli o'qishdan ketishga majbur bo'layotgani sir emas.

Ha, xalqimizda «Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur qil», degan dono naql bor. Shunday ekan, mustaqilligimiz yaratib bergan shart-sharoit, Konstitutsiyamizda belgilab berilgan haq-huquqingizdan foydalangan holda faqat yaxshi o'qishingiz, ko'proq bilim, tafakkurga ega bo'lishingiz kerak, aziz o'quvchi!

Konstitutsiya qabul qilingan kun – bayram barchamizga muborak!

Yurtimiz doimo tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin!

U BOR YURTIM OBODDIR

*Adolatga tayangan,
Baxtimiz – Qomusimiz.
Himoyada doimo,
Erk va or-nomusimiz.*

*Biling, u olti bo'lim,
Yigirma olti bobdur.
Har dam ochiqdir yo'lim,
U bor yurtim oboddir.*

*Bir yuz yigirma sakkiz,
Moddalardan iborat.
Ma'nosin anglasangiz,
Yo'lingiz yorug', albat.*

*O'rganib o'z burchimiz,
Yetuk inson bo'laylik.
Sarflab aql-kuchimiz –
Yurtga xizmat qilaylik!*

**Umidaxon KARIMOVA,
Sergeli sanoat kasb-hunar
kolleji o'quvchisi**

BAXTIMIZ KAFOLATI

Mana, 21 yildirki, Bosh Qomusimiz yurtimiz tinchligini mustahkamlab, adolatti, huquqiy davlat barpo etish uchun xizmat qilmogda.

Ayni kunlarda, yurtimizning barcha go'shalarida Konstitutsiya kuni keng nishonlanmoqda. Jumladan, Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 59-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim

maktabida ham qator tadbirlar o'tkazilmoqda. Ayniqsa, D.Qambarova rahbarlik qilayotgan 6-«A» sinf o'quvchilari tomonidan tashkillashtirilgan «Konstitutsiya – baxtimiz qomusi» deb nomlangan tadbir ko'tarinki ruhda o'tdi.

Tadbirda Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi Toshkent shahar, Shayxontohur tumani bo'limi rahbari X. Saidova, tashkiliy masalalar, axborot tahlil kadrlar koordinatori S.Boy-

murodov, «Xadra» mahalla fuqarolar yig'ini ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha mahalla maslahatchisi M. Qosimova kabi mehmonlar ishtirok etishdi.

Tadbirni ochib bergan Respublika «Yetakchi yoshlar» markazi rahbari N. Subhonov o'z so'zida o'quvchilar Konstitutsiya bergan imkoniyatlardan to'la foydalanishlari, uning moddalarini chuqur o'rganishlari, yorqin g'oyalarni o'zlashtirishlari, shu yo'l bilan huquqiy bilimlarini oshirishlari lozimligini ta'kidladi. O'quvchilar Konstitutsiya, Davlatimiz bayrog'i, gerbi, madhiyasiga oid bilimlari bilan o'rtoqlashdilar. Qomusimiz moddalari, sahna ko'rinishlari va she'rlar orqali ifodalandi. Kuy va qo'shiqlar, jozibador raqslar tadbirga ko'tarinkilik bag'ishladi.

Vatanni asrash va unga munosib farzand bo'lish barchamizning muqaddas burchimiz, Ona yurtini sevish, farovon hayotimizning asosi bo'lmish O'zbekiston Konstitutsiyasini mukammal bilish, unga rioya qilish oliy maqsadimiz ekanligini maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar muovini Zarifa Pirmuhammedova ta'kidlab o'tdi.

Qomusimiz xalqimiz uchun farovon hayot, faxr va iftixor timsoli bo'lib qolaversin!

Muzaffar AHMEDOV



M. AZIMOV olgan suratlar

3-«D»da yana BAYRAM

Buni qarangki, poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 34-maktab o'quvchilari turli tadbir-u bayramlarni tashkillashtirish bo'yicha juda ilg'or ekan.



Ana, maktabning faollar zalida 3-«D» sinf o'quvchilari sinf rahbari Mavjuda opa Shokirova boshchiligidagi navbatdagi bayramga tayyorgarlik ko'rishmoqda. Sochlarini ikkita qilib o'rgan Muslimaxon Qoriyeva odatdagidek faol, ham she'r aytmogda, ham raqsqa tushishga shay turibdi. Aytishlaricha, yaqinda O'zbekiston Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda odam savdosining salbiy oqibatlariga bag'ishlangan sahna ko'rinishi namoyish etgan mazkur sinf kichintoylarini maktab rahbari Mehri opa Rahimberdiyeva va Faxriya opa Shirova alohida olqishlashdi. Chindan ham bu o'quvchilar boshlang'ich sinf bo'lishlariga qaramay, o'quvchi-yoshlar hayotiga oid mavzularga bag'ishlangan



sinf soatlari ham o'tkazib borishadi. Yaqinda uyush-
qoqlik bilan o'tkazilgan rus tili fani oyligida faol
qatnashgan Odiljon Abdushukurov ham barcha o'g'il-

qizlar kabi yurtimizda o'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganishlariga katta e'tibor berilayotganidan mamnun:

– Ingliz va rus tillarini puxta o'rganib, bilimlar bellashuvida qatnashishni, katta bo'lganimda, oliy o'quv yurtida o'qib, yaxshi ishlab, ota-onamni xursand qilishni istayman.

Odiljonning ustosi Mavjuda opaning aytishicha, o'quvchilarning til o'rganishlarida sinf va maktab miqyosida o'tkazilayotgan turli tadbirlar qo'l kelayotgan ekan.

– Shuningdek, «Tong yulduzi» gazetasining «Ingliz tilini o'rganamiz» sahifasida berilayotgan turli mashq-u rasmlari topshiriqlar o'quvchilarning bu tilni maroq bilan o'rganishlariga yordam bermoqda. Shuning uchun ham bu yil butun sinfimiz bilan sevimli nashrimizga obuna bo'ldik, – deydi ustoz mamnuniyat bilan.

– Yaqinda maktabimizda Konstitutsiya bayrami bo'lib o'tadi, – deya suhbatimizga qo'shildi shu sinf o'quvchisi Ibrohim Ramziddinov. – Hozir yod olgan she'rlarimizni takrorlayapmiz. Baxtimiz Qomusidagi har bir moddani o'z tushunchamiz asosida sharhlab beramiz. Qo'shiqlar aytib, raqsqa tushamiz. Menga shunday tadbirlar juda yoqadi...

Ha, orangizda bayram-u ochiq darslarni xush ko'rmaydigan o'quvchi bo'lmasa kerak-a?! Shunday tadbirlarda o'qib-o'rganib, ham o'ynab, bolaligingizni mazmunli o'tkazing, aziz o'quvchim!

Sayyora QODIROVA

NOYABR - RUS TILI FANI OYLIKI

Noyabr – rus tili fani oyliki bizning maktabimizda ham o'zgacha tarzda o'tkazildi. Bilim maskanimizda rus tili fani to'garagi muntazam faoliyat yuritadi. To'garak rahbarimiz Ra'no opa Tursunova mashg'ulotlarni bir-biridan qiziqarli, noodatiy usulda olib boradilar.

To'garakda rus adiblari hayoti va ijodini mukammal o'rganyapmiz, grammatik diktantlar yozib, rus tilidagi so'zlarni xatosiz talaffuz etishni mashq qilyapmiz.

Mashg'ulotlardan olgan nazariy bilimlarimizni, maktabimizda o'tkaziladigan adabiy-badiiy tadbirlarda mustahkamlab boryapmiz. Yaqinda ilm maskanimizda rus tili faniga bag'ishlangan ana shunday tadbirlardan biri bo'lib o'tdi. «Sehrgar oltin kuz» deb nomlangan ushbu tadbirda o'quvchilar kuzning sarxil mevalari siymosida kuz faslining

mo'jizakorligi haqida rus tilida quvnoq she'r va qo'shiqlar ijro etishdi.

Bu tadbir o'quvchilarda ham, o'qituvchilarda ham katta taassurot qoldirdi.

Muxlisa OLIMOVA,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
265-maktab o'quvchisi



ASOSIY QONUNIMIZ

Mustaqillikka erishgach, xalqimizning asriy orzulari ro'yobga chiqdi. Istiqolol bizga o'zligimizni anglash, tariximizni chuqur o'rganish, bilim olishimiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlatchiligimizning huquqiy asoslari yaratildi. Chunonchi, 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Zero, Bosh Qomusimiz davlatimizning asosiy Qonuni bo'libgina qolmay, yurtimizda yashayotgan fuqarolarning hayoti, sha'ni va qadr-qimmatini eng oliy qadriyat sifatida ulug'ladi. Bu esa qalbimizda kelajakka ishonch bilan boqishimiz uchun qat'iylik hissini uyg'otdi.

Yulduz SUVONBERDIYEVA,
Jizzax viloyati, Yangiobod tumanidagi
1-IDUMning 9-sinf o'quvchisi

SOG'LOM TURMUSH

«Orasta qizlar» to'garagi a'zolarining har sohada ilg'or ekanliklarini yaxshi bilasiz. Bu safar zukko qizlar sog'lom turmush tarziga oid bilimlarini sinovdan o'tkazishga bel bog'lashibdi. Shayxontohur tumani Xotin-qizlar qo'mitasi, «Kamolot» YOIH, Madaniyat va sport ishlari tuman bo'limi hamkorligida 1-dekabr – Xalqaro OITSGa qarshi kurashish kuniga bag'ishlangan «Yoshlar – sog'lom turmush tarafdorlari» shiori ostida o'tkazilgan intellektual musobaqada o'quvchi-qizlar OIV infeksiyasi,



TARAFDORIMIZ

gijohvandlik, chekish va shu kabi zararli odatlarning oldini olish haqidagi loyihalarni taqdim etishdi. Savol-javob, mavzuga oid sahna ko'rinishi shartlarida ham faollikni qo'ldan bermagan Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti qoshidagi akademik litsey o'quvchilari 1-o'ringa, 157-maktab vakillari 2-o'ringa, 19-maktab jamoasi 3-o'ringa ega bo'lishdi. G'oliblar tadbir tashkilotchilarining Diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Muxlisa XOLMATOVA

HECH BIR BOLA E'TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI,

3-dekabr – Xalqaro nogironlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kuni arafasida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazida bo'lib, Elvira opadan quyidagilarni yozib oldik:

– Ko'rib turganingizdek, markazimizda bolalar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Markazda 6 ta

ilmiy bo'lim hamda 1 ta amaliy bo'lim faoliyat yuritadi. Ilmiy bo'limimizda maxsus maktablar, internatlar uchun imkoniyati cheklangan bolalar bilan shug'ullanishga oid uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqiladi, amaliy bo'limimizda esa

ko'rish, eshitish, tayanch-harakati kabi a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolajonlarni sog'lomlashtirish ishlari olib boriladi. Muassasamizdagi sensor xonasi, reabilitatsiya basseyni, qum terapiyasi, ertak terapiyasi, shuningdek, yurtimizda yangilik bo'lgan LFK xonalari bolalar ixtiyorida. LFK xonasida miya faoliyati funksiyasini rivojlantiruvchi sport anjomlari mavjud. Bu anjomlar bolalarning har xil harakatlarni mustaqil ravishda bajarishlariga ko'maklashadi. Ilgari otanalarni nuqson bilan tug'ilgan farzandlarini besh-olti yil mobaynida uy parvarishida ushlab turishgan bo'lsa, hozirda bunday bolalar dunyoga kelgan ilk kunlaridan oq nevropatolog, psixolog, terapevt, logoped kabi mutaxassislardan

tashkil topgan maxsus guruh tekshiruvidan o'tkaziladi va kompleks-korreksion rivojlantiruvchi hamda ijtimoiy hayotga moslashtiruvchi amaliyotlar boshlab yuboriladi. Bu, avvalo, imkoniyati cheklangan bolaning jamiyatda o'z o'zini tezroq topishiga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan



bolalarning haq-huquqlarini himoya qilish, salomatligini saqlash, ularning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda qator vazirliklar va muassasalar bilan hamkorlikda sport musobaqalari tashkil etmoqdamiz. Bunday musobaqalarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan sog'lom bolalarni bir guruhga birlashtirgan holda o'tkazib, ko'zlagan maqsadimizga to'raligicha erishyapmiz. Bellashuvlarda bir-birlarini qo'llab-quvvatlab turgan bolajonlarni ko'rib, quvonyapmiz.



– deydi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining imkoniyatlari cheklangan bolalar muammolarini o'rganish bo'limi boshlig'i Elvira opa NAZAROVA.

Aslida har bir bolada iqtidor, qobiliyat bo'ladi. Biz ana shu xislatlarni yuzaga chiqarishga ko'maklashamiz, xolos. Imkoniyati cheklangan bolalar ham hayotda o'z o'millarini topishlari, sog'lom insonlar bilan yelkama-yelka turib mehnat qilishlari uchun barchamiz harakat qilishimiz lozim...

Mazkur markazda bo'lganimizda, bolalarning o'ksik ko'ngillariga quvonch bag'ishlashni maqsad qilgan Elvira opadek jonkuyar, mehri-daryo insonlar ko'pligiga amin bo'ldik va ularning mashaqqatli ishlarida muvaffaqiyatlar tiladik.

Ko'zlari quvonchdan porlab turgan bolajonlarga qarata, sizning barkamol ulg'ayishingiz uchun yurtimizda hamma sharoitlar muhayyo. Bilim olishingiz, sport bilan shug'ullanishingiz, o'zingiz istagan to'garakka qatnab, hunar o'rganishingiz mumkin. Buning uchun xohish bo'lsa, bas, degimiz keldi.

Ozoda TURSUNBOYEVA.
T. NIG'MATULLIN va Z. NISHONOVA
olgan suratlar

FARG'ONADA BOLALAR MARKAZI

Imkoniyati cheklangan bolalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlariga ijtimoiy-psixologik, tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida Farg'ona shahrida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi mintaqaviy filiali faoliyat ko'rsata boshladi.

Markazning ochilishida ishtirok etganlar mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib voyaga yetkazish hamda ijtimoiy himoyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidlashdi.

Yangi ish boshlagan mintaqaviy filial Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlaridagi ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga majmuaviy ijtimoiy pedagogik, defektologik, logopedik, psixologik va tibbiy yordam ko'rsatadi.

– Bolalar ijtimoiy moslashuv markazimiz barcha zamonaviy jihozlarni bilan to'liq, beqam-u ko'st ta'minlangan, – deydi mintaqaviy markaz rahbari Barno Ismoilova. – Bolalarning jismoniy va intellektual qobiliyatini rivojlantirish, ularda ijobiy o'zgarishlarni shakllantirish bo'yicha barcha xodimlarimiz yetarli malaka va tajribaga ega. Ularni baxtli hayot kechirishi, zamonaviy ta'lim olishi uchun qulay sharoit yaratish borasida butun kuch va g'ayratimizni sarflaymiz. Har bir bola – mehr va e'tiborimizda.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

DIQQAT, «YURT OZOD, TURMUSH OBOD» insholar, fotosuratlar va rasmlar tanlovi yakunlandi



Qadrli o'quvchilar, yodingizda bo'lsa, gazetamiz orqali «Obod turmush yili» munosabati bilan «Yurt ozod, turmush obod» nomli insholar, fotosuratlar va rasmlar tanlovi e'lon qilingan edi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda har bir yilga biror nom berilishining mazmun-mohiyatini ong-u shuuringizga chuqurroq singdirish, xonadonimiz, mahallamiz, maktabimiz, qo'yingki, yurtimizni obod qilishdek xayrli ishlarga sizlarni yanada kengroq jalb qilish maqsadida e'lon qilingan mazkur tanlovimizga o'quvchilarimizdan juda ko'plab maktublarni oldik.

Tahririyatga kelgan barcha ijodiy ishlar ko'rib chiqilib, mazmunli insholar, mavzuga oid chiroyli rasmlar gazeta sahifalarida e'lon qilindi va quyidagi o'quvchilar g'olib deb topildi:

- 1-o'rin – Shahnoza TOSHQULOVA, Sirdaryo viloyati, Guliston 1-akademik litsey o'quvchisi;
- 2-o'rin – Mahliyo QO'NISHEVA, Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi;
- 3-o'rin – Fotima JO'RAYBOYEVA, Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 109-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi;
- Rag'batlantiruvchi o'rin – Madina YO'LDOSHEVA, Namangan viloyati, Yangiyo'rg'on tumanidagi 32-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi.

Tanlov g'oliblari «Tong yulduzi» gazetasining «Faxriy yorliq»lari bilan taqdirlanadilar. G'oliblarni qutlaymiz!



Taniqli bolalar shoiri Dilshod RAJAB sermahsul ijodkorlardan. Uning «Daryo ko'ngil», «Jilvon o'g'loni», «Otamning bog'i», «Alifbo», «Sanoq», «Sukut sarhadi», «Tanish tovushlar» kabi bolajonlar sevib o'qiydigan kitoblari soni bu yil yana bittaga ko'paydi.

Ushbu mitti to'plamga muallifning turli hayotiy voqea-hodisalardan chiqargan bolalar olamiga xos xulosalari asosidagi she'rleri jamlangan bo'lib, ular yosh kitobxonni o'ylashga, fikrlashga undaydi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Xalqaro «Oltin qalam» mukofoti sovrindori Dilshod Rajabning «Muharrir» nashriyotida chop etilgan «Poyezdning bolasi» nomli kitobchasi ham kichikintoylarning kitob javonidan munosib o'rin egallaydi, degan umiddamiz.

Quyida sevimli shoirimiz ijodidan namunalar o'qiydiz.



DO'STLIK



Bir-biriga uzalgan
Do'stlik qo'llari kabi
Sonsiz simyog'ochlarni
Bog'lab turar simlari.

Bu do'stlik rishtalari
Cho'zilgan yiroqlarga.
Shu do'stlik nur bergaydir
Har qayda chiroqlarga.

Uzilmas ekan toki
Do'stlik ipi – simlari,
Yorug' bo'lar hattoki
Bu olamning tunlari.



SHAMOL

Daraxtlarni silkitib,
Tegmaganga tegib xit,
Kezar shamol g'uv-g'uv.

Bandin uzgan yaproqlar,
Uchqur-chopqir toychoqlar
O'ynab yurar quv-quv.

Yum-yumaloq soqqaday
Dum-dumaloq olmalar
Qulab tushar duv-duv.

Qo'rqib ketgan qushchalar
Sapchib ko'kka ucharlar,
Ko'tarishib qiy-chuv.

G'azablangan dev kabi
Kattakon bog' tebranib
Guvranadi guv-guv.

G'AROYIB SAYR

«Hayvonot bog'i»n asta
Qadam tashlab kezaman.
O'zimni shu nafasda
Naq pahlavon sezaman.

Qo'limni belga tirab
Tikilaman qo'rqmasdan.
Yuvosh mushukday turar
Qarshimda zo'r yo'lbarstar.

«Hayt!» desam ayiq polvon
Cho'chib qaytar ortiga.
Meni ko'rib karkidon
Toshday qotib qoldi-ya.

Timsohlar jim ko'z tikib
Qo'rqa-pisa mo'ralar.
Ulkan fillar bosh silkiib
Muloyim hol so'rashar.

Naq pahlavon sezaman
O'zimni shu nafasda.
...Buncha sehr-kuch qaydan
Oddiy simto'r qafasda?

JUMBOQ BOLA

Qor desang, bobo deydi, (qorbobo)
Muz bilan qaymoq yeydi. (Muzqaymoq)
Teshikdan kulcha ko'rar, (teshikkulcha)
Atirni gulday terar. (Atirgul)

Toshlik baqa bo'lar, der, (toshbaqa)
Soat qumga to'lar, der. (Qumsoat)
Chechakni boy deb aytar, (boychechak)
Boltani oy deb aytar. (Oybolta)
O'zi qandoq bola bu,
Ajab jumboq bola bu!



QOYILMAQOM PARVOZ

(Hikoya)

Mana, bu yil to'rtinchi sinfni tugatib, beshinchi sinfga o'tdim. Maktabda boshlang'ichni tugatgan o'quvchilarga kattalardak muomalada bo'linishi kerak. Har holda men shunday o'ylayman! O'zim kashfiyotlarga juda qiziqaman. Azbaroyi qiziqqanimdan ixtirolarga oid ko'rsatuvlarni qoldirmasdan ko'rib boraman.

Kecha bir hujjatli filmda sirti oq mato bilan qoplangan, tagidan ikkita uzun temir o'tkazilgan uchburchak qanotsifat narsada odamlarning uchayotganini ko'rsatishdi. Bu filmni ko'rgach, kechasi bilan uxlay olmadim. Miyamda mingta fikr aylanaverib, qizitib yubordi bu boshni. Kompyuterlarga qoyil, shuncha ishni bajarishsa ham, kallalari qizimaydi. Xullas, tong otgach, o'rtog'im Javlonning oldiga chopdim. Xonasiga kirsam, aka-uka

chaqiraman», deya xonadan g'ayratim ikki hissa oshib chiqib ketdim.

Bugun yakshanba. Uydagilar dalaga ketishgan. Shartta arra, tesha, bolta, bolg'a va boshqa anjomlarni oldim-u, ishga kirishdim. Avvaliga kichkina qanot yasadim. Ustiga mato qoplagach, mushugimizni ostiga bog'ladim-da, tomdan uchirdim. Qoyil, uchburchak qanot yaxshigina uchdi va olmalarning shoxiga ilinib, qo' nolmay qoldi. Demak, kattaroq qanot yasay olsam, o'zim ham uchishim mumkin ekan. Agar uddalay olsam, maktabga uchib borib kelardim. Shunday xayollar bilan berilib ishlayotsam, tepamda kimdir serryayib tiribdi. Qarasam, Javlon. Bepisand ishimni kuzatyapti. Indamadim. Onam bekorga: «Indamasang Aliga, o'zi kelar holiga», demas ekan. Shunda u:

ikki burchakda yostiqa yonboshlab yotishibdi.

– Tur-e, Javlon, buncha yostiqlarning ertaklarini eshitavermasang. Undan ko'ra seni, meni eshitishsin. Bo'laqol, kallamga ajoyib bir fikr keldi, – desam, u ko'zlarini arang ochdi-da:

– E, sira tinch qo'y-maysan-da. Juda qiziq joyiga keluvdi. Undan keyin yostiqlarni tinglashning gashtini sen qayoqdan ham bilarding. Fikrlaring o'zingga siylov. Iltimos, ket, – deya ko'rpasini tortib oldi.

«Ha, mayli, avval o'ylagan narsamni yaratib ko'ray-chi. Yordamga uni, albatta,

– Sobir, nimalar qilyapsan? Boya uyquning beliga tepganing yetmagandek, akamdan ham nasibamni oldim. Sendek do'sti bor odamga dushmanni keragi yo'q. Nega ketayotganingda akamni tepib ketding? – deya rosmana jahl bilan gapiryapti. Shu bolaga hayronman. Ob-havo ham uning fe'lichal tez o'zgarimasa kerak.

– Mayli, uzr, kechirim so'rayapman-u. Buncha qovog'ingdan qor yog'masa?! Bo'ldi, undan ko'ra yordamlash. Agar shu ishimiz o'xshasa, birinchidan maktabga piyoda qatnamaymiz, ikkinchidan ariqlarini tozalab qo'y, yaqinda suv o'rmiga pullar oqib keladi. Qara, uchar qanotlar ustida ishlayapman...

Shu kuni ikkalamiz rosa ter to'kdik. Qormimiz ochib, shirinliklar, qatiq, yong'oqni aralashtriyeb oldik. Keyin yana ishga kirishdik. Quyosh botay deganda, uchar qanotimiz tayyor bo'ldi. Ertani ham kutmay, uchib ko'rishga qaror qildik.

Qo'limizda tosh yashirib, navbatma-navbat topishga kelishdik.

Do'stimning yashirgan toshini topa olmaganim uchun u birinchi bo'lib sakraydigan bo'ldi. Ikki qavatli molxonamizning tomiga mag'rurlanib chiqdi-da, oyoq-qo'llarini qanotlar ostidagi tayoqlar orasiga kiritib, ikki metr qilib bosilgan poxol ustiga sakradi. Hammasi bir lahzada sodir bo'ldi. Mato eski ekan, biroz shishdi-yu, yirtilib ketdi. Javlon suvga kalla tashlagandek g'aram ustiga uchib tushdi. Qanotning yarmi sinib, g'aramning bir tomoniga, qolgan qismi ikkinchi tomoniga tushdi. «Uchuvchi»miz bo'lsa, poxol uyumining o'rtasiga botib ketdi. Oldiga borsam, og'iz-burniga xaslar kirgan, qo'lining u yer-bu yeri shilingan. Ust-boshini qoqa turib:

– O'zi sen birinchi uchsang bo'larkan. Yoki atay qildingmi? Yana kulishingni qara... Endi sen bilan hech qachon o'ynamayman, – deya har doimgi qo'shig'ini kuylab qoldi...

ABDUAHAD

«Obod turmush yili»

Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimizda ko'plab oilaviy sport musobaqalari tashkil etilmoqda. Quvonarlisi, bu sa'y-harakatlar sabab, oilalarda sog'lom turmush tarzi qaror topib, farzandlar sog'lom va barkamol bo'lib kamolga yetmoqdalar.

Kuni kecha poytaxtimizdagi «Qushbegi» sport majmuasida Hukumatga qarashli bo'lmagan «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari hamda Xalq ta'limi vazirliklari, «Kamolot» YOIH Markaziy kengashi hamkorligida «Sog'lom oila – sog'lom kelajak» oilaviy sport o'yinlarining respublika bosqichi o'tkazildi. Musobaqada viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 14 oilaviy jamoa yugurish, akrobatika, nishonga otish estafetasi, kim chaqon va mergan, mohir o'qotar, arqon tortish, chaqon ona, epchil bola shartlari bo'yicha o'zaro bahslashildi.

Ishtirokchilar bor mahorat va imkoniyatlarini ishga solib, o'z

SOG'LOM OILA – YURT TAYANCHI



oilalari sharaflini munosib himoya qilishga intildilar. Ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Xorazm, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlari hamda Toshkent

shahrining oilaviy sport jamoalari tezkor harakatlari, epchilligi bilan barchada iliq taassurot qoldirdi.

– Jismoniy tarbiya va sport

bilan shug'ullanishni har bir oilaning kun tartibiga kiritishda, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etishda mana shunday sport musobaqalarning o'rni va ahamiyati beqiyos, – deydi Toshkent viloyatidan kelgan sportchi oila boshlig'i Komiljon Yusupov.

– Bolaligidan sportning futbol, milliy kurash turlariga qiziqaman. Bu musobaqadan ko'p narsa o'rgandim. Ayniqsa, respublikamizning turli hududlaridan kelgan tengdoshlarim bilan do'stlashish imkoniyatiga ega bo'ldim, – deya taassurotlari bilan o'rtoqlashdi Javohir Bahridinov.

Musobaqa yakunida Toshkent viloyatidan kelgan Yusupovlar oilaviy jamoasi birinchi, Toshkent shahridan Safinlar oilasi ikkinchi, samarqandlik To'raboyevlar oilasi faxrli uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

G'olib va sovrindorlar musobaqa tashkilotchilari tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Sport inson salomatligini mustahkamlaydi. Shunday ekan, u Sizning ham doimiy hamrohingiz bo'lsin!

Sa'dullo TURSINOV

SHOHJAHONNI JAHON TANISIN!

Sportchi bolalar ko'pincha jiddiy, qat'iyatli bo'lishlarini bilasiz-a?

Maktabimizning 2-«D» sinfida tahsil olayotgan Shohjahon Meliqo'ziyev ham ana shunday qat'iyatli, irodali kichkintoylardan biri. Uning yana bir o'rmaq qilsa arzigulik jihati bor: she'riyatga qiziqadi, ingliz tili mashg'ulotlariga qatnab, bu tilni mukammal o'rganib bormoqda. Sportdagi yutuqlariga



to'xtaladigan bo'lsak, shu yil yozda taekvandoning ITF turi bo'yicha «Yoz – o'tmoqda soz!» shiori ostida o'tkazilgan viloyat

ochiq chempionatida 1-o'rinni egalladi. Besh yoshidan sportning taekvando turi bilan shug'ullangan tengdoshimiz yaqinda Sochi shahrida 20 kg. vazn toifasidagi sakkiz yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasida bo'lib o'tgan chempionatda ham 1-o'ringa sazovor bo'ldi. Shohjahon kelajakda Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarayotgan sportchilarimiz kabi mohir sport ustasi bo'lishni orzu qiladi. Uning orzulari ro'yobga chiqishiga tilakdoshmiz.

Barno MAMAJONOVA, Shayxontohur tumanidagi 59-DIUM 5-«B» sinf o'quvchisi

Turkiyaning Eskishahar shahrida shaxmat bo'yicha 14 va 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan xalqaro turnirda hamyurtlarimiz umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi.



SHAXMATCHILARIMIZ G'ALABASI

14 yoshgacha shaxmatchilar o'rtasidagi musobaqada 62 nafar o'g'il-qiz kuch sinashdi. Turnirda mag'lubiyatsiz dona surgan mamlakatimizning umidli shaxmatchilaridan biri – Ortiq Ne'matov olti imkoniyatdan besh ochko jamg'arib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Hamyurtimiz musobaqada turkiyalik Janberk Kochak, Sodiq Nozirqo'l, turkmanistonlik Farxan Kazimov, ozarbayjonlik Ismoil Shohaliyevni mag'lubiyatga uchratib, o'z jamoadoshi Fotih Abdullayev hamda qirg'izistonlik Aydar Kenanboyev bilan durang o'ynadi.

16 yoshgacha o'smirlar musobaqasida 61 nafar shaxmatchi g'oliblik uchun dona surdi. Musobaqada irodali o'yin ko'rsatgan Alisher Bekmurodov jamoamiz hisobiga bronza medal qo'shdi.

Shaxmatchimiz turnirda makedoniyalik Mo'min Aliyev, ozarbayjonlik Fotima Ahmadova, Elxon Bayramov, o'zbekistonlik Nodirabegim Parpiyeva va turkmanistonlik Shonapes Meredov ustidan zafar quchib, besh ochko bilan uchinchi o'rinni egalladi.

Shoh MUHAMMAD

TOG'NING SHO'X JAYRONLARI

Kasbimiz taqozosi bilan ko'plab maktablarda bo'lamiz, o'quvchilar bilan uchrashamiz. Iqtidorli, izlanuvchan, ilmga chanqoq o'g'il-qizlarning ko'pligi bizni behad quvontiradi. She'riyat ixlosmandlari, yosh rassomlar ijodidan bahramand bo'lamiz. Bolajonlarning kompyuterda ishlashlaridan hayratlanamiz.

Ana shunday iqtidorli yoshlarimizdan Nargiza Mahmatova hamda Gavharoy Rixsiboyeva haqida alohida to'xtalgimiz keldi. Bu ahil dugonalar Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 5-«V» sinfida a'lo baholarga o'qishadi. Bu yerlarning havosi juda toza. Shundan bo'lsa kerak, kasalliklar ulardan yiroq yuradi.

– Erta turib, tog'ning sof havosidan to'yib-to'yib nafas olsangiz, o'zingizni dadil his qilasiz, ish va o'qishlaringiz baroridan keladi, – deyishadi tog'liklar.

Demak, bu jayrondek



sho'x qizlarimizning o'qishga, ijodga bo'lgan ishtiyoqi bejiz emas ekan-da. Nargiza rasm chizadi, Gavharoy esa she'r va hikoyalar yozadi.

Marhamat, tengdoshlaringiz ijodlaridan bahramand bo'ling.

MANZURA

MUALLIMIM

Quchoq ochib kutib olgan,
Bolaligim tutib olgan.
Alifboning yorqin yuzin,
Shunda ko'rgan edi ko'zim.
Berdi odob, berdi ta'lim,
Mehribonim, muallimim.



20-noyabr – 20-dekabr – Yong'in xavfsizligi oyligi

TILSIZ YOV

Ma'lumki, jamiyat uchun ham, shaxs uchun ham xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kuz, qish oylarida yong'indan saqlash choralarini ko'rish juda zarur.

«Suv balosidan, o't balosidan asrasin» degan ibora bejiz aytilmagan, albatta. Chunki ehtiyotsizlik insoniyatga katta moddiy va ma'naviy zarar yetkazadi. Olov – tilsiz yov tufayli barcha moddiy boyliklar yonib kulga aylanishi, eng achinarlisi, insonlar hayoti ham zavol topishi mumkin.

Yong'inlarning aksariyati fuqarolar turarjoylarida yuz berayotganini alohida ta'kidlash joiz. Zero, gazli isitish va elektr asboblardan noto'g'ri

foydalanish, mas'uliyatsizlik, befarqlik, umuman, yong'in xavfsizligining oddiy qoidalariga rioya qilmaslik, ularni ko'rona ravishda buzish oqibatida yong'in chiqish hollari ko'plab uchramoqda. Vaholanki, birgina o'chirilmagan sigareta qoldig'i yoki elektr simlarning qisqa tutashuvi natijasida ham yong'in chiqishi mumkin. Shunday ekan, har birimiz o'z uyimizni, o'zimiz va yaqinlarimiz hayotini asraylik!

Uyda, ishxonada, jamoat joylarida yong'in xavfsizligi haqida o'ylaylik, falokatning oldini olishga harakat qilaylik.

D. MALIKOV,
Toshkent shahar IIBB YOXB
JTB muhandisi, serjant



TURPLI SALAT

Kerakli masalliqlar:


1 bog' ko'k piyoz, 3 dona tuxum, 1 ta turp, 6 dona rediska, 2 osh qoshiq smetana va ta'bga ko'ra tuz.

Tayyorlanishi:

Avval turpning postlog'ini artib, 10 daqiqaga suvga solib qo'yamiz. So'ng, qaynatilgan tuxum, rediska, 1 bog' ko'k piyoz va turp maydalab to'g'raladi va bir idishga solinadi. 2 osh qoshiq smetana, ta'bga ko'ra tuz qo'shib aralashtiriladi. Tayyor bo'lgan salatimizni salat barglari bilan bezatilgan likopchalariga solib, dasturxonaga tortilsa, yanada chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi



TOPISHMOQLAR

Asalni xush ko'radi,
Qishda tushda ko'radi.

Hammaga o'xshamas u,
Ko'zin ochsa, kirmas suv.

Na burgut yer, na arslon,
Na quyon yer, na sirtlon.
Quyondan uddaburon,
Kosasi unga qalqon.



Shahlo QURBONOVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
197-maktabning 5-«D» sinf o'quvchisi

Gazetaning 47-sonida berilgan «CHAMANZOR DIYOR» AYLANMA KROSSVORDIning javoblari:

Shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida: 1. Norin. 2. «Naybahor». 3. Teatr. 4. Kollej. 5. Kimyo. 6. Ahmedov. 7. Mashrab. 8. Farg'ona. 9. Ibrat. 10. Chortoq. 11. Brom. 12. Ko'ksaroy. 13. O'zbek. 14. Chorkesar. 15. Chust. 16. Chustiy. 17. Muzei. 18. Echkievar. 19. «Dinamo». 20. Andijon. 21. Laqqa. 22. «Yoshlik». 23. Tulki. 24. «Gulbahor».

Topshiriq: Zafar Diyor. «Uch og'ayni».

2-dekabr 2013

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSIONOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV.

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruz MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin ORIPOV
Musahhih
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 46547
Buyurtma N: 8636

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOL» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.